XALQ DEPUTATLARI QUMQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI
Qumqo‘rg‘on tumani,O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy.190900,tel.: (+99876)46-52-511

2022 - yil 30 - iyun VI-50-83-8-114-K/22 Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

# Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

## QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qaror "Qumqo‘rg‘on sadosi" gazetasi va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy

komissiyasi raisi M.Namozov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengash raisining o‘rinbosari**



**Ch.E.Qultoyev**

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2022 yil 30 iyundagi
VI-50-83-8-114-K/22-son qaroriga
1-ilova

# Xalq deputatlari tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

## RO‘YXATI

1. Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining 2017-yil 10-yanvardagi 5-20/81-sonli Qumqo‘rg‘on tumanining 2016-yil mahalliy budjeti ijrosi va 2017-yil mahalliy budjeti asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining 2017-yil 1-fevraldagi 5-20/82-sonli 2017-yil uchun aholi bandligi dasturi parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.

3. Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining 2019-yil 15-yanvardagi 174/41-5-sonli Qumqo‘rg‘on tumanining 2018-yil mahalliy budjeti ijrosi va 2019-yil mahalliy budjeti asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining 2019-yil 18-dekabrdagi 228/55-5-sonli Qumqo‘rg‘on tumanining 2020-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

5. Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining 2020-yil 28-dekabrdagi 6-20/86-sonli Qumqo‘rg‘on tumanining 2021-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.